

TOG' ADIRLARDAN QISHLOQ XO'JALIGIDA UNUMLI FOYDALANISH

Ashurbekov Alisher Avazbek o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Respublika qishloq xo'jaligida mamlakatning iqlim, yer - suv va mehnat resurslaridan hamda xalqning asrlar davomida to'plagan dehqonchilik madaniyatidan unumli foydalanish*

Kalit sozlar: *iqlim, yer suv xojaligi, ekin,*

Annotatsiya: *Cotton growing is the leading industry in the agricultural sector of the Republic on the basis of the efficient use of the country's climate, land and water and labor resources, as well as the agricultural culture that the people have accumulated over the centuries. At the moment, the main industries include grain growing, shalykorlik, canopies, Horticulture, Vegetable growing, fruit growing, grape growing, cattle breeding, sheep breeding, goats, poultry farming, barberry, beekeeping, cocoon breeding.*

Respublika qishloq xo'jaligida mamlakatning iqlim, yer - suv va mehnat resurslaridan hamda xalqning asrlar davomida to'plagan dehqonchilik madaniyatidan unumli foydalanish negizida paxtachilik yetakchi tarmoq hisoblanadi. Ayni paytda g'allachilik, sholikorlik, kanopchilik, polizchilik, sabzavotchilik, mevachilik, uzumchilik sohalari, chorvachilikning qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, parrandachilik, yilqichilik, asalarichilik, pillachilik sohalari ham asosiy tarmoqlarga kiradi.

Respublika qishloq xo'jaligida mulkchilik shakllariga ko'ra qishloq xo'jaligi kooperativi - shirkat xo'jaliklari, davlat xo'jaliklari, naslchilik zavodlari, o'quv tajriba hamda tajriba xo'jaliklari, xususiy - dehqon va fermer xo'jaliklari, xususiylashtirilgan korxonalar, aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari sektorlari mavjud. Respublika parlamenti qishloq xo'jaligida tub burilishlarning huquqiy asoslarini yaratadigan qonunlarni qabul kildi. Jumladan yer to'g'risida, O'zbekiston respublikasida tadbirkorlik to'g'risida, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida, ijara to'g'risida, dehqon xo'jaligi to'g'risida, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida, yer solig'i to'g'risida, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida, 1998 yil aprel oyida Oliy Majlisning XI sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, "Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida" qonunlari hamda xukumat qarorlari qishloq xo'jaligida ko'p ukladli iqtisodiyot poydevorini yaratishga yo'l ochdi. Qishloqda mulkdorlar sinfini shakllantirish agrar siyosatdagi muhim yo'nalishga aylandi. Respublika qishloq xo'jaligini rivojlantirishda xalqaro tashkilotlar dasturidan foydalanish yo'lga qo'yildi. Bu tadbirlar xo'jalik yuritish mexanizmini takomillashtirishga, xo'jaliklarni

iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga, qishloq mehnatkashlari turmush darajasini oshirishga hamda xo`jaliklarda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni rivojlantirishga yo`l ochdi. Hozir qishloq xo`jaligidagi band bo`lgan me`yordan ortiqcha mehnat resurslarini sanoatga, xizmat ko`rsatish sohasiga jalb etish davlat agrar siyosatining g`oyat muhim yo`nalishi hisoblanadi. Qishloq joylariga sanoat ni olib kirish, zamonaviy texnologiyaga ega bo`lgan kichik korxoanalarni ochish hisobiga yangi ish joylarini yaratish ustivor vazifa hisoblanadi. qishloqda tub islohotlarni o`tkazish, qishloq xo`jaligini rivojlantirish qishloq xo`jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish O`zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omili va manbaidir.

Yangi xo`jalik yuritish shakllari

Qishloq xo`jaligida shirkat, fermer, dehqon xo`jaliklari mulk shaklida mavjud. Qishloq xo`jaligi korxonalarining iqtisodiy asosi xo`jalikning butun choralar bilan mustahkamlash, uni tashkil etishni va ishlab chiqarish metodlarini yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish va mehnatga haq to`lashning bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida amalga oshirishdir. Qishloq xo`jaligi korxonalariga xizmat ko`rsatish uchun mashina - traktor parklari tashkil etildi. Ular qishloq xo`jaligi korxonalarini tuzimining moddiy - texnika bazasidan iborat bo`lib, yerlarni shudgorlash, ekinlarni parvarish qilishni mexanizatsiyalash bilan bog`liq bo`lgan katta hajmdagi ishlarni bajaradi. Mashina - traktor parklari qishloq xo`jalik korxonalarini rivojlantirish va mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Qishloq xo`jalik shirkati, fermer va dehqon xo`jaliklari iqtisodiy nuqtai - nazardan qishloq xo`jaligini hozirgi zamon industrial negizda rivojlantirish imkonini beradi.

Qishloq xo`jalik korxonalarining tashkiliy asoslari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish vositalarining xususiy mulkligiga asoslangan ishlab chiqarishning umumiy xarakteri;
- qishloq xo`jaligi korxonalariga birlashtirib qo`yilgan yer amaldagi qonunlarga asosan davlat mulkidir, binobarin, bu yer sotilishi mumkin emas.
- barcha masalalarni xal qilishda jamoa a`zolarining tashabbusi va ijodkorligi uchun cheksiz imkoniyatlar yaratib beradigan ishlab chiqarishni tashkil etishning jamoa formalari:
 - ayrim tarmoqlarda va butun xo`jalikda yetishtirilgan mahsulotni rejalashtirish;
 - xo`jalik hisobi tamoyillari asosida ishlab chiqarish - moliyaviy faoliyat, xarajatlarning daromadlar bilan muvofiq kelishi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun va mulkiy paylar uchun zarur bo`lgan foydaning olinishi;
 - ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori va sifatiga qarab xodimlar mehnatiga haq to`lash.

Qishloq xo`jaligi korxonalarini - shirkat, fermer, dehqon xo`jaliklari yagona maqsadga egadirlar, bu maqsad jamiyatning doimiy o`sb boruvchi ehtiyojlarini to`la qondirish maqsadida ko`p miqdorda arzon mahsulot ishlab chiqarishdan iboratdir. Shirkat, dehqon, fermer xo`jaliklarining ishlab chiqarish strukturasi, maxalliy shart -

sharoitlarni hamda qishloq xo'jaligi taraqqiyotini muayyan bosqichida uning oldida turgan vazifalarni hisobga olgan holda belgilab chiqiladi. Shu bilan birga, mahsulotning qaysi turlarini ishlab chiqarish uchun eng qulay sharoitlar mavjud bo'lsa, o'sha turlarning hajmini ustun darajada ko'paytirish, ularni ancha chuqur va mustahkam ixtisoslashtirish yo'li bilan eng ko'p iqtisodiy samaraga erishiladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining tashkiliy strukturasi xo'jalik tarmoqlarini ixtisoslashtirish va bir - biriga qo'shishga, uning hajmiga, dehqonchilik qilinadigan yerlarning territorial joylashuvi hamda boshqa faktorlar va shart - sharoitlarga to'g'ridan - to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida bozor mexanizmlarini rivojlantirish, dehqonda sohiblik xissini uyg'otish, mulkchilik munosabatlarini takomillashtirish, qishloq xo'jaligi korxonalarining o'zida ijara munosabatlarini chuqurlashtirish, yerni meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod foydalanishga berib qo'yish orqali, shuningdek, shirkat, fermer, dehqon hamda shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni keng rivojlantirish asosida ro'y berishi lozim.

Dexonchilikda oilaviy pudrat shaklini qo'llash, yerga egalik qilishda daromadni taqsimlashda esa paychilik usulidan foydalanish, pay orqali mulkka egalik qilish, daromad olish, shartnoma asosida ishlash maqsadga muvofiqdir. Qishloq xo'jaligi korxonalariga servis xizmat ko'rsatish qanchadan - qancha aholini ish bilan band qilishga imkon yaratadi. Qishloq xo'jalik korxonasi yoki fermer xo'jaligi uz xo'jaligida turib, kerakli urug'lik, mineral o'g'itlar yoki texnika xizmati uchun, arzon va ishonchli ta'minotchi xamkoriga buyurtma berishi va uni o'z vaqtida olishi mumkin. Toki dehqon yoki fermer o'zining asosiy ishi hosil to'plash va yig'ish bilan shug'ullanmas ekan, uning ishida unum ham samara ham bo'lmaydi. Qishloq xo'jaligida xizmat ko'rsatish sohasini yetarli darajada tashkil etish zarur.

Yerlarni melioratsiyalash, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, elektrlashtirish, kimyolashtirishda erishilgan yutuqlar, ekinlar hosildorligini oshirish, mehnat unumdorligini ko'tarishda xal qiluvchi ahamiyatga egadir. Respublikada qishloq xo'jaligini ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlaydigan sanoat tarmoqlarining rivojlanishi uning moddiy - texnika bazasini mustahkamlaydi.

Respublika Prezidentining "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini davlat yo'li bilan qo'llab - quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi farmonida (1996 yil 3 aprel) qishloq xo'jaligini sifatli texnika, mineral o'g'itlar, ekinlarni himoya qilishning kimyoviy vositalar bilan ta'minlash respublika qishloq xo'jaligini rivojlantirishning kompleks dasturida ustivor vazifalar sifatida belgilangan.

Respublikada qishloq xo'jaligi sohasidagi umumiy siyosatni respublika qishloq va suv xo'jaligi vazirligi amalga oshiradi. Davlat boshqaruvning kuyi bo'g'ini bo'lgan tuman, qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari davlat xo'jaliklari, shirkat xo'jaligi uyushmalari va boshqalarga umumiy rahbarlikni olib boradi. Ixtisoslashuviga ko'ra bog'dorchilik, tokchilik, ayrim issiqxona xo'jaliklari mustaqil

“O`zmevasabzavotuzumsanoatxolding” kompaniyasiga qaraydi. Ayrim tarmoqlarga rahbarlikni amalga oshirish uchun qishloq va suv xo`jaligi vazirligining “qorako`l”, “O`zbek ipagi”, “O`zparrandasanoat”, “Asal” kabi respublika ishlab chiqarish uyushmalari tashkil etilgan.

Qishloq xo`jalik mintaqalari

O`zbekiston xududi qishloq xo`jaligi jihatdan uch mintaqaga bo`linadi: tog` va tog` oldi mintaqasi respublika xududining 20 foizdan ortigini tashkil etadi. Asosan lalmikor dehqonchilik, ya`ni bug`doy, arpa, nuxot, zigir ekiladi, bog`dorchilik va uzumchilik taraqqiy etgan, bu mintaqada mavsumiy bahorgi kuzgi yaylovlar bor, chorvachiligi go`sht, jun yetishtirishga ixtisoslashgan. Sug`orma dehqonchilik mintaqasi respublika xududining qariyb 20 foizini tashkil etadi. Bu mintaqqa Fargona vodiysi, Mirzacho`l, Dalvarzin cho`li, Chirchiq - Oxangaron, Zarafshon, Kashqadaryo va Surxon - SHERobod vodiylari, Quyi Amudaryoni o`z ichiga oladi. Asosan paxta, kanop, bug`doy, makkajuxori, sholi, kartoshka, sabzavot, poliz ekinlari, yem - xashak ekinlari yetishtiriladi. Bog` va tokzorlar, tutzorlar, rezavor meva maydonlari bor, go`sht - sut chorvachiligi rivojlangan. Cho`l - yaylov mintaqasi - respublika xududining 60 foizini tashkil etadi. Asosan cho`l va suvsiz tekisliklardan iborat. Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari, Qoraqalpog`istonda va Farg`ona vodiysining markaziy qismida joylashgan. Respublikada dehqonchilikning asosiy tarmoqlari - paxtachilik, kanopchilik, tamakichilik, donchilik, sabzavotchilik, polizchilik, kartoshkachilik, bog`dorchilik, uzumchilik, lavlagi va yem - xashak ekinlari yetishtirish sohalaridan iboratdir. O`zbekiston chorvachilikning qadimiy markazlaridan biri. Respublikaning tuproq va tabiiy iqlim sharoitlari - unumdor sug`oriladigan yerlar, bepoyon qir - adirlar, dasht - cho`l va tog` oldi yaylovlari chorvachilikning rivoji uchun qulay. Sug`oriladigan yerlarda asosan qora molchilik, cho`chkachilik, parrandachilik, quyunchilik, asalarichilik, qir - adirlar, dasht - cho`l va tog` oldi hamda tog`li yaylovlarda esa qo`ychilik, echkichilik, yilqichilik, tuyachilik, suv xavzalarida baliqchilik rivojlangan.

Ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta`minlash, mahsulot yetishtirishni ko`paytirish hisobiga aholi daromadini oshirish, shuningdek, qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni moddiy resurslar (xizmatlar) bilan uzluksiz ta`minlash hamda yetishtirilgan mahsulotlarni kafolatli xarid qilish maqsadida:

1. Qishloq xo`jaligi vazirligi, Moliya vazirligi hamda Bog`dorchilik va issiqxona xo`jaligini rivojlantirish agentligining (keyingi o`rinlarda — Bog`dorchilik agentligi) meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash uchun ajratilishi ko`zda tutilgan mablag`lar hisobidan Bog`dorchilik va issiqxona xo`jaligini rivojlantirish jamg`armasiga 12 oy muddatga, shu jumladan 11 oylik imtiyozli davr bilan qo`shimcha 300 milliard so`m budjet ssudasini yillik 10 foiz stavkada ajratish to`g`risidagi taklifi ma`qullansin.

Moliya vazirligiga qaytarilgan mablag`lar hisobidan yil davomida Bog`dorchilik agentligining buyurtmanomalari asosida qo`shimcha budjet ssudasi ajratib borilishini

ta'minlash vazifasi yuklatilsin. Bunda, ajratilgan budjet ssudasi bo'yicha qarzdorlikning jami summasi mazkur qaror doirasida 300 milliard so'mdan oshib ketmasligi kerakligi belgilab qo'yilsin.

2. Mazkur qarorning 1-bandida belgilangan mablag'lar Bog'dorchilik agentligi tomonidan tijorat banklariga resurs sifatida yo'naltirilgan holda, Bog'dorchilik agentligining loyiha ofislari rahbarlarining hamda mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimlari yordamchilarining tavsiyasiga ko'ra:

qishloq xo'jaligi korxonalariga — meva, uzum, kartoshka, sabzavot, poliz ekinlari, ko'katlar va dorivor o'simliklar, dukkakli va moyli ekinlar (keyingi o'rinlarda — qishloq xo'jaligi ekinlari) yetishtirishga urug'lik, o'g'it, yoqilg'i, o'simliklarni himoya qilish vositalari yetkazib berish uchun;

mahsulotlarni qayta ishlovchi, saqlovchi va eksport qiluvchi korxonalarga — yetishtirilgan qishloq xo'jaligi ekinlarini xarid qilishda talab etiladigan aylanma mablag'larini to'ldirish uchun ajratiladi.

Bunda:

qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish uchun kreditlar 150 million so'mgacha garovsiz beriladi;

kreditlar bo'yicha foiz to'lovlari yillik 14 foiz (shundan 3 foizi bank marjasi) miqdorida belgilanib, kreditlar 6 oygacha imtiyozli davr bilan 12 oy muddatgacha ajratiladi;

ajratiladigan kredit mablag'larining 50 foizigacha bo'lgan qismi qarz oluvchi talabiga asosan naqd pulda taqdim etiladi;

ajratiladigan kreditlar bo'yicha Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari garov ta'minoti sifatida qabul qilinadi.

3. Moliya vazirligi va Qishloq xo'jaligi vazirligi qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish va ularni xarid qilish tizimini qo'llab-quvvatlash maqsadlari uchun Bog'dorchilik agentligiga zarur bo'lgan mablag'larning olti oy oldin ajratib borilishini ta'minlasin.

4. Belgilansinki:

a) kredit mablag'larining qaytmaslik xatarini sug'urta qilish bo'yicha yoki hosilni xavf-xatardan sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisi qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtiruvchilarga ajratiladigan kreditlar bo'yicha garov ta'minoti sifatida qabul qilinib, kreditlarni so'ndirishga yo'naltirilishi mumkin;

b) qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtiruvchilarga hosilni xavf-xatardan sug'urta qilish xarajatlarining 50 foizi Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan qoplab beriladi.

Moliya vazirligi 2023-yil va kelgusi yillar uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtiruvchilarga hosilni sug'urta qilish

xarajatlarining 50 foizini qoplash maqsadlari uchun Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga zarur mablag'lar ajratilishini ta'minlasin.

5. Bog'dorchilik agentligi direktori X. Karimov, O'zbekiston fermer, dehqon ho'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi A. Haitov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyatlar hokimlari:

joriy yilda qo'shimcha ajratilayotgan 20 ming gektar va 2023-yilda beriladigan 95 169 gektar ekin maydonlarida yetishtirilgan mahsulotlar hisobidan importni qisqartirishga shaxsan mas'ul ekanliklari belgilab qo'yilsin;

2022-2023-yillarda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtiriladigan maydonlar kamida 300 ming gektarga yetkazilishini ta'minlasin. Bunda, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish uchun mo'ljallangan yerlarga ekinlarni joylashtirish Bog'dorchilik agentligi tomonidan belgilab beriladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYATLAR:

1. Yo'ldoshev Z. Y. " Iqtisodiy va sotsial rivojlanishni planlashtirish". Toshkent, "O'qituvchi"

2. <https://strategy.uz/index.php?news=615&lang=uz>

3. <https://mineconomy.uz/uz/node/1798>

4. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/iitimoiy-siyosat>